RUS TILI BADIIY MATNLARIDA AVIATSIYA TERMINLARINING FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ra'no Ergashova To'rayevna, *O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining, Harbiy aviatsiya instituti professori, filologiya fanlari doktori (DSc), ergashova-91@mail.ru, +998 (97)8601312, ORCID ID: 0000-0003-0542-434X*

Annotatsiya. Mazkur maqolada B. Polevoyning «Повесть о настоящем человеке» qissasida aviatsiya terminlarining badiiy tasvir vositasi sifatida qo'llanishi funksional-uslubiy jihatdan tahlilga tortilgan. Sohaviy birliklarning uchuvchilar faoliyati va havo jangi tafsilotlarini aks ettirish, voqealar bayonining ishonarliligini ta'minlash hamda qahramon ruhiyatini yoritishdagi vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, samolyotlar, ularning tarkibiy qismlari va parvoz asboblariga oid nomlarning kontekstual qo'llanishi, kasbiy nutq unsurlarining tasvirga singdirilishi hamda texnik aniqlikning obrazlilik bilan uyg'unlashuvi matniy misollar asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: aviatsiya terminologiyasi, badiiy matn, funksional-uslubiy tahlil, kasbiy nutq, texnik detal, kontekst, qahramon ruhiyati, badiiy obrazlilik

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АВИАЦИОННЫХ ТЕРМИНОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Раъно Эргашова Тураевна, *доктор филологических наук (DSc), профессор Института военной авиации, Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, ergashova-91@mail.ru, +998 97 860-13-12, ORCID ID: 0000-0003-0542-434X*

Аннотация. В статье проводится функционально-стилистический анализ употребления авиационных терминов как средства художественного изображения в повести Б. Полевого «Повесть о настоящем человеке». Раскрываются функции

специальной лексики в изображении деятельности лётчиков и деталей воздушного боя, обеспечении достоверности повествования и передаче психологического состояния героя. На текстовых примерах рассматриваются контекстуальное употребление наименований самолётов, их конструктивных элементов и бортовых приборов, включение элементов профессиональной речи в художественное повествование, а также сочетание технической точности с образностью и драматической напряжённостью.

Ключевые слова: авиационная терминология, художественный текст, функционально-стилистический анализ, профессиональная речь, техническая деталь, контекст, психология персонажа, художественная образность

Kirish

Rus yozuvchisi Boris Polevoy qalamiga mansub “Повесть о настоящем человеке” qissasi 1946-yil haqiqiy voqea asosida Ikkinchi jahon urushi paytidagi sovet uchuvchisi Aleksey Maresyev hayotidan ilhomlanib yozilgan. Asarda sovet uchuvchisi Aleksey Maresyevning jasorati, sabr-toqati va iroda kuchi tasvirlanadi. U nemislar bilan bo‘lgan jangda samolyoti urib tushirilgach og‘ir yarador holda 18 kun deganda o‘rmon va botqoqliklar orasidan sudralib o‘tib o‘z askarlariga kelib qo‘shiladi. Shu orada u oyoqlaridan ayriladi, ammo bu unga ruhiy zarba bermaydi. Shifoxonada davolanganidan so‘ng Maresyev protezi bilan yurishni, keyin uchishni qayta o‘rganadi. U ko‘p mashq qilib, nihoyat yana frontga qaytadi va oyoqlari yo‘qligiga qaramay, dushman samolyotlarini urib tushirgan haqiqiy qahramonga aylanadi.

Asar nafaqat adabiyot, balki aviatsiya tarixi va ruhiyati uchun ham katta ahamiyatga ega. Muallif *samolyot, parvoz, havo jangi, boshqaruv* kabi aviatsiya terminlarini badiiy tilda jonli tasvirlaydi. Shu orqali o‘quvchi uchuvchilik kasbining murakkabligi va xavfini chuqur his etadi. Masalan, jang paytidagi holatlar, uchuvchi kabinasidagi jarayonlar, havo harakati tili barchasi asarda real va hayajonli tarzda berilgan. Jumladan, *“А получилось все это так. Звено* ***истребителей*** *под командой*

лейтенанта Мересьева вылетело сопровождать ***ИЛ****ы, отправлявшиеся на* ***штурмовку вражеского аэродрома****. Смелая вылазка прошла удачно.* ***Штурмовики, эти «летающие танки****», как звали их в пехоте, скользя чуть ли не по верхушкам сосен, подкрались прямо к летному полю, на котором рядами стояли большие транспортные «юнкерсы». Неожиданно вынырнув из-за зубцов сизой лесной гряды, они понеслись над тяжелыми тушами «ломовиков», поливая их из пушек и пулеметов свинцом и сталью, забрасывая хвостатыми* ***снарядами****. Мересьев, охранявший со своей четверкой воздух над местом* ***атаки,*** *хорошо видел сверху, как заметались по* ***аэродром****у темные фигурки людей, как стали грузно рас¬ползаться по накатанному снегу транспортники, как штурмовики делали новые и новые заходы и как пришедшие в себя* ***экипажи*** *«юнкерсов» начали под огнем выруливать на старт и поднимать машины в воздух"[2].* Keltirilgan parchada dramatik jang sahnasi jonli va realistik tarzda tasvirlangan. Yozuvchi aviatsiya terminlari va texnik atamalardan mahorat bilan foydalanadi: "*истребителей, ИЛы, штурмовики, «юнкерсы», пушек и пулеметов*" kabi terminlar asarda uchuvchilar faoliyatini aks ettiradi, voqeani batafsil va aniq tushuntiradi. Shuningdek, u badiiy-estetik funksiyani ham bajaradi: samolyotlarning daraxt tepasi orqali harakati, havo ustidagi jang sahnasi va yerda tartibsiz harakat qilayotgan transportchilar voqeaning kino kadridek jonli chiqishini ta'minlagan [4].

"Он стоял на ***аэродроме у самолета****, своего самолета, и его* ***механик****, или, как он называл его,* ***«технарь»,*** *долговязый Юра, блестя зубами и белками глаз, всегда сверкавшими на его небритом и вечно чумазом лице, приглашающим жестом показывал ему на* ***кабину****: дескать, готово, давай к полету. Алексей сделал к самолету шаг, но земля пылала, жгла ноги, точно ступал он по раскаленной плите. Он рванулся, чтобы перескочить через эту пышущую жаром землю прямо на* ***крыло****, но толкнулся о холодный* ***фюзеляж*** *и удивился. Фюзеляж был не гладкий, покрытый лаком, а шероховатый, облицованный сосновой корой.*

Никакого самолета он на дороге и шарит рукой по стволу дерева"[2]. Bunda yozuvchi uchuvchining tayyorgarlik jarayoni va texnik muhitini badiiy tasvirlashga erishgan. "*Фюзеляж", "кабина", "самолет"* kabi terminlar inson va texnika o'rtasidagi uyg'unlik va qarama-qarshilikni, shuningdek, samolyotning tashqi yuzasi bilan qahramonning subyektiv tajribasi birlashtirilgan [5].

"Намеченная жертва ускользнула из мересьевского прицела. Вместо нее он увидел выше себя ***ЯК****, к* ***хвост****у которого прочно прицепился прямокрылый сигарообразный «****фока****». От* ***крыльев*** *«фоки» уже тянулись к ЯКу две параллельные полоски* ***трасс****. Они коснулись его хвоста. Мересьев свечой бросился вверх на выручку. На какуюто долю секунды над ним мелькнула темная тень, и в эту тень он постарался всадить длинную очередь из всего своего оружия. Он не видел, что произошло с «фокой». Он видел только, что ЯК с поврежденным хвостом дальше летел уже один. Мересьев оглянулся: не потерялся ли в кутерьме ведомый? Нет, он шел почти рядом"[2].*

"ЯК, «фока», крылья, трассы" kabi terminlar havo jangining texnik tafsilotlarini aniq ko'rsatadi. Havo jangining shiddati, bir necha samolyotning bir vaqtning o'zida harakati, uchuvchilik mahoratini va ruhiyatini jonli tarzda aks ettiradi.

"Мересьев осмотрел воздух, намечая противника, и вдруг почувствовал, как у него сразу похолодела спина и волосы шевельнулись на затылке. Чуть пониже он увидел ***ЛА-5*** *и* ***атакующе****го его сверху «фоку». Он не заметил номера советского* ***самолета****, но понял, почувствовал, что Петров. «Фокке-вульф» несся прямо на него, строча из всего своего оружия. Жить Петрову оставалось доли секунды. Сражались слишком близко, и Алексей не мог броситься на помощь другу, соблюдая правила* ***воздушной атаки****"[2].* Yozuvchi bu orqali insoniy va psixologik dramatizmni markazga oladi. Meresyevning qo'rquv va xavotirini his qilish orqali o'quvchi jangning yaqinligi va hayot-mamot masalasini sezadi. Aviatsiya terminlari – *"ЛА-5, «фока», «Фокке-вульф»"* – reallikni oshiradi va uchuvchilik kasbining xavfini

jonli tasvirlaydi. Shu bilan birga, yozuvchi qahramonning do‘stini himoya qilish va qoidalarni bajarish mas’uliyatini ochib beradi [7].

“Небо кругом было чисто, и откудато издали, с невидимого уже ***самолета****, в притихшем эфире гудел голос: – Я «****Чайка-два»,*** *Федотов; я – «Чайка-два», Федотов. Подстраивайтесь, подстраивайтесь ко мне. Домой. Я – «Чайка-два». Должно быть, Федотов уводил группу. После того как Мересьев, расправившись с «фокке-вульфом», вывел свой самолет из сума¬сшедшего* ***вертикального пике****, он, жадно и тяжело дыша, наслаждался наступившим покоем, ощущая радость минувшей опасности, радость победы. Он взглянул на* ***компас****, чтобы определить обратный путь, и нахмурился, заметив, что бензина мало и вряд ли хватит до* ***аэродрома****. Но более страшное, чем* ***бензомер*** *со стрелкой, близкой к нулю, он увидел в следующее мгновение. Из мохнатых косм пушистого облака прямо на него несся бог весть откуда взявшийся «фок- ке-вульф-190»”[2]. Компас, вертикальное пике, «фокке-вульф-190»* kabi terminlar qahramonning havo muhitidagi vaziyatini aniq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yozuvchi Maresyevning hayajon, yengilganlik hissi, g‘alaba va xavf ostidagi ruhiy holatini ochib beradi. Parcha asarga badiiy-estetik va dramatik ohang beradi, o‘quvchi jang paytida uchuvchilik kasbining yanada murakkablik kasb etishini chuqur his qiladi.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlari asosan texnik va kasbiy leksikaga mansub bo‘lib, ularning stilistik xususiyati aniqlik, qisqalik va funksionallik bilan ajralib turadi. Ingliz tilida terminlar ko‘pincha global standart va universal xarakterga ega bo‘lib, qisqa shakllar, akronimlar va rasmiy professional ohangda ishlatiladi [6]. Rus tilida terminlar texnik aniqlik va tasvirlovchi tavsifga urg‘u beradi, ko‘p hollarda qisman badiiy matnda ham ishlatiladi. O‘zbek tilida aviatsiya leksikasi milliy lingvistik va badiiy ohangni saqlaydi, shuningdek, texnik aniqlikni uyg‘unlashtiradi, ko‘pincha o‘zbekchalashtirilgan xorijiy so‘zlar va xalqona ifodalar birga qo‘llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Labov W. Sociolinguistic patterns. (Conduct and Communication, 4.) Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P.372.; Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. Routledge. Fourth edition published 2013, – P. 489.;
2. Борис Полевой: «Повесть о настоящем человеке» – М., «Издательство Астрель», 2009 – С. 325.
3. Fishman A. Sociolinguistics: A brief introduction. Newbury House, 1971. – P. 126.
4. Ergashova R.T. Ingliz, rus, o'zbek tillari aviatsiya terminlarining chog'ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Qarshi: Ilm-fan-ma'naviyat, 2025. – 212 b.
5. Ergashova R.T. About aviation terms // Mental enlightenment scientific – methodological journal. – Jizzax, 2023. – № 3. – B. 31-38.
6. Ergashova R.T. Linguaculturological features of military aviation terminology // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2023. – № 7. – B. 58-63.
7. Ergashova R.T. Linguistic features of aviation terminology in English, Russian, and Uzbek languages: specificities and commonalities // So'z san'ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2025. – №8(2). – B. 160-169.
8. Wardhaugh R. An introduction to sociolinguistics (5 th ed.). USA: Wiley-Blackwell, 2006. – P. 418.